

## ONA TILI DARSLIGIDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MASALASI( 6-SINF ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA)

**Ochilova Muxlisa Abdurahmon qizi**

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

*Ilmiy taqrizchi: Djakbarova Mahliyo*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yangi avlod darsliklaridan 6-sinf ona tili darsligining yutuqlari, yosh avlodda 4 xil kompetensiyalarni, ya'ni o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va og'zaki nutqni shakllantirishdagi ahamiyati, mashq va topshiriq atamalarining bir-biridan farqlari haqida so'z yuritiladi.*

**Abstract:** *in this article, the achievements of the 6<sup>th</sup> grade mother tongue textbook from the new generation textbooks, the importance of the formation of 4 different competencies in the young generation, i.e reading comprehension, listening comprehension, writing and oral speech, and the differences between the terms exercise and task is spoken*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются достижения учебника родного языка для 6-го класса от учебников нового поколения, важность формирования у молодого поколения 4 различных компетенций, а именно: понимание прочитанного, понимание на слух, письменной и устной речи, а также различия между терминами «упражнение» и «задача» говорится.*

**Kalit so'zlar:** *Ona tili ta'limi, kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, mashq, topshiriq.*

**Key words:** *mother tongue education, critical thinking, creativity, collaboration, communication, exercise, assignment.*

**Ключевые слова:** *обучение родному языку, критическое мышление, творчество, сотрудничество, общение, упражнение, задани*

Barchamizga ma'lumki, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda Ona tili fanining ahamiyati kattadir. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni darsga qiziqtirishning muhim omili bu – darslikdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoniga ko'ra so'nggi yillarda darsliklar yangilanmoqda. Yangi darsliklar hozirgi zamon kishisi uchun kerak



bo'lgan "4K" - kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya ko'nikmalari bo'yicha ishlab chiqildi. Ya'ni bu o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovich yangi darsliklar bilan tanishib, ularning mazmuni yuzasidan tavsiyalar berdi: "Dunyo pedagoglari tajribasidan foydalangan yaxshi. Shu bilan birga, darsliklarda milliy g'oya, ajdodlarimiz merosi ham bo'lishi kerak. Masalan, jadid bobolarimiz ta'lim bo'yicha qancha ishlar qilgan. Yaqinda Elbekni o'qidim. «Qiz bolani o'qitgan davlat butun jamiyatni o'qitgan bo'ladi» deb yozgan ekan. Bizning darsliklarimizda bunday gaplar yo'q-ku. Nima demoqchiman? Yangi darsliklarni shunday mukammal tayyorlash kerakki, keyinchalik bunga yana qaytmaylik. Bugungi ta'lim qirq yildan keyin biz haqimizda so'zlaydi".

Yangi Ona tili darsliklar xuddi tavsiyalar asosida jahon ta'lim standartlariga mos ravishda qayta shakllantirildi. Ushbu maqolada yangilangan 6-sinf ona tili darsligining mazmuni va xususiyatlari, yutuqlari haqida so'z yuritiladi. Mazkur darslik 2022-yilda Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov muallifligida

nashrdan chiqdi. Darslikning asosiy maqsadi o'quvchilarda 4 ta kompetensiyalarni, ya'ni o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu ona tili fani tarixida katta yangilik bo'ldi. Zero, shu paytgacha ona tili darsliklari faqat grammatik qoidalar va mashqlardan iborat bo'lib, o'quvchilarda faqat yozish ko'nikmalarini va qisman og'zaki nutqni rivojlantirar edi. Jumladan, xuddi shu 6-sinf ona tili darsligining 2017-yildagi nashrini oladigan bo'lsak, ushbu darslikning asosiy maqsadi grammatikani o'qitish va mashq bajaritirishdan iboratdir. Darslikda keltirilgan 491 mashqdan 209 tasi yozish bilan bog'liq. Ma'lumki, til ta'limining asosiy maqsad, vazifasi o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. Ona tili ta'limida ko'p hollarda "mashq" va "topshiriq" atamalari bir-biri bilan o'zaro almashib, farqlanmasdan, sinonim tarzda qo'llanilish holatlari uchraydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "topshiriq" atamasiga shunday ta'rif beriladi: "Topshiriq – kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq".

Pedagogika fanlari doktori G'ofir Hamroyev "mashq" va "topshiriq" masalasiga alohida to'xtalib o'tib, bu atamalarni bir-biridan farqini tushuntirib beradi: "**Mashq** – muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakani hosil qilish vazifasini bajaradi. U sinfda o'qituvchi nazorati ostida bajariladi. Masalan, h va x undoshlari ishtirok etgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish mashqi.



**Topshiriq** – kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi. Topshiriqlarni o'quvchi sinfdan tashqarida mustaqil ham bajarishi mumkin"[G'. Hamroyev, Avtoreferat, 20-b.]

6-sinf ona tili darsligining 2017-yildagi nashrida aynan mana shu jihatlar e'tiborga olinmasdan, topshiriqlar ham mashq nomi ostida berib ketilgan. Masalan, mazkur darslikning 24-betida berilgan 61-mashqni olaylik: "Keksalarni ardoqlang!" mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating".

Ushbu vazifa bir marta bajarish uchun beriladi va uni o'quvchi sinfdan tashqari ham bajarishi mumkin. Agar G'ofir Hamroyevning fikrlariga asoslanadigan bo'lsak, ushbu vazifa mashq emas, balki topshiriqdir.

Yangilangan 6-sinf ona tili darsligi mavzu jihatidan ham, topshiriq va mashqlar jihatidan ham tubdan o'zgartirilgan. Grammatik qoidalar kamaytirilib asosiy e'tibor 4K ko'nikmalariga berilgan. Darslik 25 ta mavzudan iborat bo'lib, har bir mavzu o'quvchilar uchun kerakli bo'lgan, turli sohalarga doir, dunyoqarashni kengaytiruvchi, hayotiy bilimlarni oshiruvchi, qiziqarli ma'lumotlardan iborat. Masalan, " Shifoxona", "Qayta ishlanadigan chiqindilar", "Jigar – eng mehnatkash a'zo", "Kompyuter grafikasi", "Eksport yoki import" va hokazolar. Darslikning yana bir muhim yutuqlaridan biri unda tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga doir topshiriqlarning kiritilishidir. Har bir mavzuda bittadan tinglab tushunishga doir topshiriq berilgan bo'lib, ularning umumiy soni 25 ta. Yangi ona tili darsliklari ona tili ta'limini isloh qilishda, uni rivojlantirishdagi muhim qadamlardan biridir. Zero, bugungi kundagi eng muhim masalalardan biri bu o'quvchilarni o'z ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'ofir Hamroyev. "Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish". – Toshkent, 2022-yil
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati". 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: O'zME, 2004-yil
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. "Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik". - Toshkent, 2022-yil.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. "Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik". – Toshkent: "Tasvir", 2017-yil.



5. <https://president.uz/oz/lists/view/5797>

